

UMUMIY O'RTA MAKTABLARIDA 8-SINF FIZIKA FANIDAN ELEKTRON DARSLIK TAYYORLASH

Davletniyazov Salamat Paluaniyazovich

Fizika o'qitish metodikasi kafedrası p.p.f.d.(PhD)

Kuliyeva Avezgul Merdan gizi

Ajiniyoz nomidagi NDPI

Fizika va astronomiya 4 kurs talabasi

Annotatsiya Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga ta'lim berishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalariga qaratilgan. Elektron darslik 8-sinf fizika fanining Elektr bo'limi bo'yicha olgan bilimlarini mustahkamlash uchun qo'shimcha manba sifatida foydalanishlari mumkin.

Kalit so'zlar: Axborot-kommunikatsion texnologiyalar, AutoPlay dasturi, multimediya texnologiyalari, 8-sinf darsligi.

Abstract The article focuses on the use of advanced pedagogical technologies in teaching students in general secondary schools. The electronic textbook can be used as an additional resource to consolidate the knowledge gained in the Electrical Department of Physics for 8th grade.

Key words: Information and communication technologies, AutoPlay program, multimedia technologies, 8th grade textbook.

Biz yashab turgan zamon zamonaviy axborot texnologiyalari asri bo'lganligidan vatanimizda ta'lim sohasidagi islohotlar jadal sur'atlar bilan rivojlanib amalga oshirilmoqda, ayniqsa, ta'lim tizimida joriy qilinayotgan zamoaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim jarayonlarini osonlashtirib, qulayliklar yaratib bermoqda. Shu jumladan, fanlarni o'qitishda zamonaviy texnologiya va pedagogik dasturiy vositalar tayyorlash va shu o'rinda yaratilgan zamonaviy texnologiya va dasturiy qo'llanma taqdimotlarni dars jarayonlariga keng ko'lamda tadbiq etish muhim rol o'ynamoqda. Yuqorida aytilgan fikrlarni qo'llagan holda o'quvchilarni psixologik holatlari va qiziqish darajalarini hisobga olgan holda kitobdagi ma'lumotlarni yaxlit o'zida jamlab va qo'shimcha tarzda video ma'lumot va o'quvchilarni mavzu yuzasidan bilimlarini avtomatik tarzda baholaydigan test loyihasi bularni o'zida birlashtirgan bir pedagogik dastur yaratishdir. Bunday dasturni yaratish uchun biz avvalo AutoPlay Media Studio 8 dasturini mukammal tarzda o'zlashtirishimiz zarurdir [1].

Multimedia texnologiyalariga asoslangan amaliy dasturlarni yaratish uchun Autoplay Media Studio dasturidan foydalanish foydalanuvchilar uchun juda oson va qulay interfeysni taqdim etadi.

Autoplay Media Studio bilan ishlashda deyarli dasturlash ishlari talab qilinmaydi. Foydalanuvchi faqat turli dizaynli dasturiy muhitni tanlash uchun bir nechta tayyor shakllardagi loyiha shablonlaridan foydalanishi mumkin.

2008-yilning 12-martida Indigo Rose Corporation kompaniyasi Autoplay Media Studio 8.5.0 versiyasini iste'molga chiqardi.

Dastur foydalanuvchilarga obyektlarni o'zaro bog'lashni amalga oshirishga yordam beradigan yuzlab vositalarni taqdim eta oladi.

Autoplay Media Studio dasturi muhitida Visual Basic, Visual C++, Java, Macromedia Flash kabi qator tizimlarda yaratilgan hujjatlarni ham bemaolol qayta ishlash mumkin.

Dastur yordamida animatsiyalanuvchi menyuni, kataloglar daraxtini, ma'lumotlar bazasini va shunga o'xshash obyektlarni nafaqat tez yaratish, balki ularni boshqarish ham mumkin [2].

Ushbu ishda AutoPlay dasturida yaratilgan 8-sinf fizika fanining Elektr bo'limi bo'yicha tayyorlangan elektron darslik [3], belgilangan kursning 4 qismini (boblarini) o'z ichiga oladi. 1-2 rasmda elektron darslikning bosh oynasi va mazmuni ko'rsatilgan



1- rasmda elektron darslikning bosh oynasi



2- rasm elektron darslikning mazmuni

Elektron darslikning har bir bobi slayd bilan boshlanadi. Mazmuni bobning sarlavhasini o'z ichiga oladi va bu bobda muhokama qilinadigan narsalarni aniq ko'rsatadigan. Bo'lim muqovasidagi "Ma'lumotlar bazasi" tugmachasini bosish orqali biz bob mazmuni sahifasiga o'tamiz (3-rasm).



3-rasm Kursning mavzu slaydlari.

Ishlab chiqilgan elektron darslik materialni chuqurroq o'rganishga, yoki o'zlashtirilmagan mavzular bilan batafsilroq tanishishga imkon beradi. Turli xil illyustratsiyalar va amaliy va laboratoriya o'quv ma'lumotlarini o'z ichiga qamrab olgan. O'quvchilar 8-sinf fizika darsiligidining Elektr bo'limi bo'yicha ma'ruzalar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlar paytida va mustaqil ish jarayonida xuddi shu elektron darslikdan foydalanish imkoniyatiga ega [4].

Xulosa qilib aytganda o'quv jarayonida mustaqil ta'limni samarali tashkil qilishda turli axborot elektron darsliklarni yaratishga alohida ahamiyat berish talab etiladi. Chunki mustaqil ta'lim, asosan, ta'lim oluvchining mustaqil o'rganishiga asoslangan o'quv faoliyati hisoblanadi. Hozirgi davrda mustaqil ta'lim uchun elektron darsliklar yaratishda zamonaviy axborot texnologiyalarning o'rni beqiyosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun Amaliy tavsiyalar).– T.—Iste'dod jamg'armasi, 2009.– 160 b.
2. Электронный обучающий курс «Практикум по педагогическому мастерству» [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://e.sfu-kras.ru/course/view.php?id=8539>
3. Davletniyazov S.P. Preparation of e-learning complex from the department of elementary particle physics-the factor of increasing educational efficiency // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. 2021. Vol. 11 Issue-1, India., pp 372-375
4. Pozilova Sh. Pedagogik dasturiy vositalar. fanidan ma'ruza mashg'ulotlari bo'yicha o'quv qo'llanma. T. 2019 y